

## YOSHLAR PARASPORTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI VA TIZIMLI MUAMMOLAR

Uraimov Sanjar Ro‘zimatovich

Farg‘ona Davlat Universiteti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati kafedrası

Professori, Pedagogika fanlari doctori. (DSc)

Axmatov Asrorbek

Farg‘ona davlat universiteti

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20379485>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada parasport va adaptiv sportdagi tizimli muammolar, xususan, tibbiy klassifikatsiya jarayonidagi adolatsizliklar va ularning sportchilar ruhiyatiga ta’siri keng qamrovli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida sohani isloh qilish bo’yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy sport, pedagogik monitoring, parasport, adaptiv jismoniy tarbiya, tibbiy klassifikatsiya, psixologik bosim, ijtimoiy reabilitatsiya, seleksiya adolatsizligi, pedagogik transformatsiya.

**Аннотация.** В данной статье проводится всесторонний анализ системных проблем в параспорте и адаптивных видах спорта, в частности, несправедливости в процессе медицинской классификации и их влияния на психику спортсменов. На основе результатов исследования разработаны научные предложения по реформированию данной области.

**Ключевые слова:** массовый спорт, педагогический мониторинг, параспорт, адаптивная физическая культура, медицинская классификация, психологическое давление, социальная реабилитация, несправедливость отбора, гиподинамия, педагогическая трансформация.

**Abstract.** This article comprehensively analyzes the systemic problems in parasports and adaptive sports, in particular, injustices in the medical classification process and their impact on the psyche of athletes. Based on the results of the research, scientific proposals for reforming the field have been developed.

**Keywords:** mass sports, pedagogical monitoring, para-sports, adaptive physical education, medical classification, psychological pressure, social rehabilitation, selection injustice, hypodynamia, pedagogical transformation.

**KIRISH.** Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida jismonan sog‘lom va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ommaviy sport tushunchasi shunchaki jismoniy mashqlar majmuasi emas, balki jamiyatning genofondini asrash, yoshlarni zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish va ularda g‘alabaga bo‘lgan irodani shakllantirishning fundamental pedagogik vositasidir.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning ikkinchi yo‘nalishi ham bevosita yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, bu borada ulkan infratuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Biroq, statistik ko‘rsatkichlar o‘sishi bilan birga, sportni boshqarish va saralash tizimida inson omili bilan bog‘liq jiddiy kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan yoshlar — parasportchilar hayotida musobaqalarga saralash bosqichi

ko'pincha motivatsiya berish o'rniga, ularni tushkunlikka tushiruvchi to'siqqa aylanib qolmoqda. Bu esa nafaqat sport natijalarini pasaytiradi, balki yosh shaxsning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga jiddiy zarba beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PF-82-son Farmoni “Ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”[1] mamlakatda jismoniy tarbiya va sport tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur farmonda aholining, ayniqsa yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, ommaviy sportni keng targ'ib qilish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Farmon doirasida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport maydonchalari va jihozlar bilan ta'minlash, shuningdek, yoshlar o'rtasida muntazam jismoniy faollikni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, aholining keng qatlamini sportga jalb qilish orqali kasalliklarning oldini olish, sog'lom avlodni shakllantirish va ijtimoiy faollikni oshirish vazifalari ham belgilab berilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tadqiqot 2024-2026-yillar davomida Farg'ona viloyatidagi sport maktablari va respublika miqyosidagi para-sport musobaqalari misolida olib borildi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Pedagogik kuzatuv: Musobaqalarga saralash va tibbiy ko'rik jarayonlarini bevosita kuzatish va xronometraj qilish.

Psixologik diagnostika: "Lusher" va "Spilberg-Xanin" metodikalari yordamida sportchilarning asab-ruhiy holatini aniqlash.

Sotsiometrik so'rov: 200 nafar para-sportchi va 50 nafar murabbiy o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma.

Statistik modellashtirish: Olingan natijalarning ishonchliligini matematik tahlil qilish.

Sport pedagogikasi va yoshlar sportini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar orasida Sh.R. Ismailovning “Sport pedagogikasi asoslari” hamda B.B. Mirzaevning “Yoshlar sportini rivojlantirishning pedagogik asoslari” asarlari muhim o'rin egallaydi. Ushbu manbalar yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritib berishi bilan ajralib turadi.

Sh.R. Ismailov o'z asarida sport pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslarini keng tahlil qilib, jismoniy tarbiya jarayonida pedagogik yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi. Muallif sportchini tarbiyalash jarayonini faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanmasdan, balki uning psixologik, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Shuningdek, asarda sport mashg'ulotlarini tashkil etishda individual yondashuv, yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda motivatsiyani shakllantirish kabi pedagogik omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa ommaviy sportni rivojlantirishda o'qituvchi va murabbiylarning kasbiy kompetensiyasi muhim ekanligini ko'rsatadi [3].

B.B. Mirzaev esa o'z tadqiqotida yoshlar sportini rivojlantirishning pedagogik asoslariga alohida urg'u beradi. Muallif yoshlar sportini ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilib, uning jamiyatdagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyatini yoritadi. Asarda yoshlarni sportga jalb qilishning samarali usullari, sport motivatsiyasini shakllantirish mexanizmlari hamda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda sportning roli keng tahlil qilingan. Shuningdek, Mirzaev yoshlar sportini rivojlantirishda davlat siyosati, ta'lim tizimi va mahalliy jamoalarning hamkorligi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi [4].

Ushbu ikki ilmiy manba sport pedagogikasi nazariyasi va yoshlar sportini rivojlantirish amaliyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Ular ommaviy sportni rivojlantirishda pedagogik yondashuvning ahamiyatini asoslab, yoshlar bilan ishlashda kompleks — ya'ni jismoniy, psixologik va ijtimoiy yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

**NATIJA VA MUHOKAMA.** Para-sport tizimida eng dolzarb va og'riqli masalalardan biri bu malakali klassifikatorlar va mutaxassislar yetishmasligi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud tizimda bir qator jiddiy kamchiliklar saqlanib qolmoqda, bu esa sportchilarning huquqlari, imkoniyatlari va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Avvalo, subyektiv klassifikatsiya muammosi keng tarqalgan holatlardan biridir. Amaldagi tartibga ko'ra, sportchi musobaqalarda ishtirok etish uchun nogironlik guvohnomasi va tibbiy xulosaga ega bo'lsa ham, ayrim hollarda klassifikatorlar tomonidan asossiz ravishda musobaqadan chetlatilish holatlari kuzatiladi. Bunday vaziyatlar ko'pincha klassifikatorlarning xalqaro standartlar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi yoki qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy yondashuv ustun bo'lishi bilan izohlanadi. Natijada, tizimda adolat tamoyili buzilib, sportchilar o'rtasida tenglikka putur yetadi.

Ikkinchi muhim muammo — bu psixologik bosim va motivatsiyaning pasayishidir. Yosh va iqtidorli para-sportchilar yillar davomida mashaqqatli mehnat va tayyorgarlik jarayonini bosib o'tadilar. Biroq, 5–10 daqiqalik tibbiy ko'rik yoki noto'g'ri baholash ularning butun mehnatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu esa sportchilarda ruhiy tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik va “men jamiyat uchun keraksizman” degan salbiy psixologik qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Bunday holat uzoq muddatda ularning sportdan butunlay uzoqlashishiga sabab bo'lishi mumkin [8].

Shuningdek, monitoring tizimining yetarli emasligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Musobaqalardan yoki saralash jarayonlaridan qaytgan sportchilar bilan tizimli ravishda psixologik, tibbiy yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilmaydi. Natijada ular sport tashkilotlari e'tiboridan chetda qolib, ijtimoiy jihatdan ham yolg'izlanib qolish xavfi yuzaga keladi.

Yana bir muhim jihat — kadrlar tayyorlash tizimidagi uzilishlardir. Tibbiy komissiya va klassifikatsiya jarayonlarida ishtirok etayotgan mutaxassislar orasida para-sportning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunadigan, sport pedagogikasi va rehabilitatsiya sohalarini mukammal biladigan kadrlar soni yetarli emas. Bu esa qarorlar sifatiga va umumiy tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator pedagogik va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish zarur. Birinchi navbatda, tibbiy klassifikatsiya jarayonlarini shaffof va nazorat ostida tashkil etish muhimdir. Bu jarayonda nafaqat tibbiy xodimlar, balki sport pedagoglari va jamoatchilik vakillari ishtirokini kengaytirish lozim. Har bir rad etilgan yoki chetlatilgan holat bo'yicha esa aniq ilmiy va huquqiy asoslangan yozma xulosa berilishi majburiy bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, raqamli monitoring tizimini joriy etish katta ahamiyatga ega. Har bir para-sportchining tibbiy tarixi, sport natijalari va psixologik holati yagona elektron bazaga kiritilishi orqali inson omili ta'siri kamayadi hamda qarorlar yanada obyektiv bo'ladi.

Uchinchidan, sportchilarga ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish zarur. Musobaqalardan noto'g'ri yoki asossiz ravishda chiqarib yuborilgan yoshlar uchun maxsus rehabilitatsiya markazlari tashkil etilishi ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam beradi. Bunda ularga faqat sportchi sifatida emas, balki jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida yondashish muhimdir.

Va nihoyat, xalqaro standartlarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Xalqaro Paralimpika Qo'mitasi (IPC) talablariga mos ravishda mahalliy tibbiy xodimlarni o'qitish, ularni sertifikatlash hamda doimiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish pasport tizimining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Parasport tizimidagi mavjud muammolar faqat tibbiy yoki tashkiliy emas, balki chuqur ijtimoiy va pedagogik xarakterga ham ega. Ularni kompleks yondashuv asosida hal etish sportchilarning huquqlarini himoya qilish va ularning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi [10].

**XULOSA.** Yoshlar o'rtasida ommaviy sportni, ayniqsa pasportni rivojlantirish masalasi nafaqat jismoniy tarbiya tizimining bir qismi, balki keng qamrovli ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida qaralishi lozim. Bugungi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, saralash jarayonlarida uchrayotgan ayrim adolatsiz holatlar yosh sportchilarning ruhiy holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va ba'zi hollarda ularning sportdagi kelajagiga ham nuqta qo'ymoqda.

Ayniqsa, pasport tizimida mavjud bo'lgan tibbiy klassifikatsiya jarayonlari ko'plab holatlarda murakkab, byurokratik to'siqlar bilan to'lib-toshgan bo'lib, bu jarayonni tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Amaldagi tizimda ayrim subyektiv yondashuvlar va noaniqliklar saqlanib qolayotgani sababli, yosh sportchilar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmayotgan holatlar uchramoqda. Shu bois, ushbu tizimni soddalashtirish, shaffofligini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlarni sportga keng jalb etish jarayonida faqatgina ularning jismoniy natijalari emas, balki ularning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va umumiy motivatsiyasi ham asosiy mezon sifatida qaralishi zarur. Chunki sportchi shaxsning ichki ruhiy barqarorligi uning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, saralash jarayonlarida inson omiliga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Shuningdek, pasport tizimiga malakali mutaxassislarni jalb etish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish va butun jarayonni ochiq hamda shaffof tashkil etish orqali yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini saqlab qolish mumkin. Bu esa nafaqat sport tizimining rivojiga, balki jamiyatda inklyuzivlik va teng imkoniyatlar tamoyillarining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri, O'RQ-394-son). – Toshkent, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6099-son Farmoni. "Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924-son Farmoni. "Jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2020.
5. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Yunusova Yu.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2019.
7. Xo'jayev F.X. Ommaviy sport va sog'lom turmush tarzi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
8. Po'latov Sh.A. Adaptiv jismoniy tarbiya va para sport asoslari. – Toshkent, 2022.
9. Matveev L.P. Теория и методика физической культуры. – Москва: Спорт, 2017.

10. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. – Москва: Физкультура и спорт, 2015.
11. Ismailov.SH.R Sport pedagogikasi asoslari. -Toshkent: O'qituvchi,2021.
12. Mirzayev.B.B. Yoshlar sportini rivojlantirishning pedagogic asoslari. -Toshkent: Fan,2020